

7-Mavzu: Bayramlari ko‘p yurtim.

Dars maqsadi:

- “Navro‘z – ezgulik, yangilanish bayrami” matni bilan tanishtirish;
- yurtimizda nishonlanadigan bayramlar haqidagi bilimlarni kengaytirish;
- og‘zaki nutqini va lug‘at boyligini oshirish.

Tayanch so‘zlar: Navro‘z, tengkunlik, tabiat uyg‘onishi.

Didaktik materiallar: Navro‘z bayrami tasvirlangan rasmlar, videolavha.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkillashtirib olish.

Faollashtiruvchi mashq: “*Qarsaklar*” mashqi.

O‘qituvchi qarsagi o‘quvchilar tomonidan takrorlanadi.

II. O‘tilganlarni takrorlash. (7 daqiqa)

She’rni ifodali yod oling. Boshqa davlatlardagi salomlashish odatlari haqida ma’lumot to‘plang.

III. Darsning asosiy qismi. (28 daqiqa)

Amaliy topshiriq. Yashiringan so‘zlarni toping.

BARAMHORBAY

Muhokama uchun quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1. Sizda qaysi so‘z hosil bo‘ldi
2. Bahorda qanday bayramlar nishonlanadi?

Mavzuni tushuntirish.

Darslikdagi savollar asosida suhbat uyushtiriladi.

1. Bayram nima?
2. Siz qanday bayramlarni bilasiz?
3. Bu bayramlarni qanday nishonlaysiz?

Fikrlar umumlashtiriladi va o‘qituvchi tomonidan to‘ldiriladi.

“Bayram – xalqning shodlik va xursandchilik kunidir”, degan edi buyuk ajdodlarimizdan biri Mahmud Koshg’ariy. Bayramlarda insonlar bir-birlariga mehr-oqibat ko’rsatadilar, do’stlik rishtalarini bog’laydilar, ezgu maqsad va g’oyalar atrofida jipslashadilar. Har bir xalqning sevib nishonlaydigan bayram va marosimlari bor.

Matn ustida ishlash.

“Navro’z- ezgulik, yangilanish bayrami” matni o’quvchilarga zanjir usilida o’qitiladi. Matn yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Navro’z qachon nisonlanadi?
2. Navro’z kunlari odamlar nima qilganlar?
3. Sizningcha, nima uchun “Navro’z – ezgulik, yangilanish bayrami” deyiladi?

Matndagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o’tkaziladi.

Palla – payt, vaqt.

Muhtoj – biror narsaga ehtiyoji bor.

Ommaviy – ko’pchilik orasida bajariladigan.

Matn o’quvchilar tomonidan yana bir ichida o’qib chiqiladi. Uning har bir qismiga sarlavha topiladi.

“Savollar gulshani” mashqi o’tkaziladi.

O’quvchilar matn yuzasidan savollar tuzishadi va bir- birlariga tuzgan savollarini berishadi.

Mashq daftari bilan ishlash.

“So’zdan so’z” mashqi. Berilgan so‘zlarga mos ma’nodosh so‘zlarni qo‘ying. Qo‘yan so‘zlarining bosh harflarini alohida yozing.

• N	navo	kuy
• A	ahil	inoq
• V	Vatan	tug‘ilgan joy
• R	rost	to‘g‘ri
• O‘	o‘rtoq	do’st
• Z	zamin	o‘lka

“Navro‘z” so‘ziga ta’rif beriladi.

Matn mazmuni asosida reja tuziladi.

Reja: (namuna)

1. Navro‘z bahor bayrami;
2. Navro‘zning nishonlanishi.

“Bu qiziq” rukni ostida berilgan ma’lumotlar o‘qiladi.

MEHRJON – *kuzgi kun va tun tengligini, hosil yig‘ish yakunini, qishga tayyorgarlik ko‘rish kabi hodisalarni aks ettiruvchi bayram.*

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)

- Bugun darsda nimalarni bilib oldik?

- Navro‘z qanday bayram?

V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)

Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Navro‘z haqida she’rlar topib yod oling.

8-Mavzu: Navro‘z taomlari

Darsning maqsadi:

- Muazzam Ibrohimova “Qochoq bug‘doycha” ertagi bilan tanishtirish;
- Navro‘z taomlari haqida ma’lumot berish;
- rollarga bo‘lib o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tayanch so‘zlar: bug‘doy, orzusiga erishish, yordam .

Didaktik materiallar. Mavzuga mos rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkil qilish.

Faollashtiruvchi mashq: So‘zlarni bir- biriga bog‘lab gap tuzing.

Bug'doy, qozon, tosh

II. O'tilganlarni takrorlash. (10 daqiqa)

Matnni mazmuni so'zlab bering. Navro'z haqida yod olgan she'rlari so'raladi.

III. Darsning asosiy qismi. (27 daqiqa)

Amaliy topshiriq: Darslikda berilgan harflardan bahoriy taomlarga oid so'zlarni hosil qiling.

SULIO'MAKOH

Muhokama uchun savollar.

1. Harflardan qanday so'zlar tuzdingiz?
2. Partadoshingiz qanday so'zlar tuzdi ?
3. Bu so'zlarni nima birlashtirib turadi?

Mavzuni tushuntirish. Suhbat uyuştiriladi. O'quvchilarga quyidagi savollar berish tavsiya qilinadi.

- Bahorda yana qanday taomlar tayyorlanadi?
- Bu taomlarni tayyorlashda qanday masalliqlardan foydalilanildi?

Matn ustida ishslash. Muazzam Ibrohimovaning "Qochoq bug'doycha" ertagi navbatma-navbat o'qitiladi. Ertak yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Ertak nima haqida ekan?
2. Bug'doychalar nima deb maqtanishdi?
3. Aytingchi, nega bitta bug'doy yig'lab o'tirardi?
4. Nima uchun bug'doycha qochishni istabdi?
5. Bug'doychaning orzusi qanday amalga oshdi?
6. Sizning ham orzularingiz bormi? Ular ro'yobga chiqishi uchun nima qilish kerak deb o'ylaysiz?

Lug'at ishi o'tkaziladi.

Saralangan – tanlangan, ajratilgan.

Bo'rsildoq non – ko'pchib pishgan yumshoq non.

Orzu – dildagi istak, ezgu umid, intilish.

Darmon – mador, kuch.


Ajablanmoq – hayron bo'lmoq, taajjubda qolmoq.

“Tanlab o‘qish” mashqi o‘tkaziladi. Lug‘atdagi so‘zlar qatnashgan gaplar topib o‘qtiladi.

Ertak rollarga bo‘lib o‘qiladi.

Mashq daftari bilan ishslash.

Mashq daftaridagi topshiriqlar mustaqil ravishda bajariladi. Ertakdagি voqealar ketma-ketligini aniqlanadi.

- 
- 1 • Ammo o‘z orzularim bor edi. Keng dalada unib, boshog‘imni quyosh taftida toblamoqchi edim.
 - 2 • Darhol donchaning savatdan tushishiga yordam berib Shabbodaxon bilan birga dalaga yetkazibdi.
 - 3 • Erta bahor kunlarining birida sumalak uchun saralangan bug‘doy donachalarini savatga yoyib qo‘yishibdi.
 - 4 • Yillar o‘tibdi. Bug‘doychaning minglab donacha nevara, chevaralari shirin sumalak, kulcha va somsalarga aylanib dasturxonlarni to‘ldirishibdi.
 - 5 • Hamma xursand, faqat bir bug‘doycha hech kimga qo‘shilmay savat chetida piq-piq yig‘lab o‘tirardi.

O‘quvchilar orzularini bosh katakchalarga yozishadi va yozganlarini o‘qib berishadi.

Darslikdagi topishmoq o‘qiladi va javobi topiladi. (bug‘doy)

IV. Darsni yakunlash va baholash. *(3 daqiqa)*

- Darsda sizga nima qiziq bo‘ldi?
- Biz bugun darsda nimalarni bajardik?

V. Uyga vazifa. *(2 daqiqa)*

Ertakni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering. Ertak mazmuniga mos rasm ishlang.

9-Mavzu: Bo‘lim yuzasidan takrorlash

Darsning maqsadi:

- “Milliy an’ana va qadriyatlarimiz e’zozda” bo‘limi yuzasidan o‘quvchilar egallagan bilimlarini mustahkamlash.
- Qadriyatlar- xalq boyligi ekanligini tushuntirish;
- Dunyoqarashini kengaytirish, tezkorligini oshirish.